

XAVFLI VAZIYATLARDA QANDAY HARAKAT QILISH KERAK?



– Hayotda har xil vaziyatlar bo'lishi mumkin. Ba'zan ular orasida xavflilari ham uchrab turadi. Akmal, qanday vaziyatlar xavfli deyilishini bilasanmi?

– Yo'q, bilmayman.



– Kel, unda birgalikda tushunib olamiz.



Xavfli vaziyatlar – insonlar, ularning mol-mulki yoki atrof-muhit xavf ostida qolgan holatlardir.



Qanday vaziyatlarni xavfli deb hisoblaysiz? Misollar keltiring. Javobingizni izohlang.



Zilzila – tabiiy ofat bo'lib, bizning o'lkamizda ham sodir bo'lib turadi.

Zilzila paytida quyidagilarga amal qilish muhim:

- Darhol xavfsiz joyga o'tib olish kerak.
- Iloji bo'lsa, chiroq, gaz va suvni o'chirish kerak.
- Pastki qavatda yashaydiganlar binodan tashqariga chiqishi kerak.
- Ko'chada baland binolar, elektr ustunlardan uzoqroq turish kerak.
- Binodan chiqishga ulgurmaganlar boshini biror narsa bilan to'sib, mustahkam stol yoki karavotning tagida cho'kkalab o'tirishi kerak.
- Uydagi ichki devorning burchagiga yoki eshik ostiga turib olish kerak.
- Derazalardan uzoqroq turish kerak.



Yong'in kutilmagan paytda, kutilmagan joyda chiqishi mumkin. Uning oldini olish uchun esa yong'inning asosiy, dastlabki belgilarini bilish kerak. Guruhlarda ishlab, yong'inning belgilarini aniqlang. Javobingizni asoslab bering.

kuygan hid

tutun

alanga

yo'tal

yonayotgan narsalarning ovozi

yonayotgan rezinaning hidi

elektr chiroqlarining o'chishi yoki o'chib-yonishi

bezgak tutishi

ko'zlarning achishishi

og'izdagi achchiq ta'm



Yong'inning sabablari juda ko'p. Masalan:

- elektr simlarining tutashib qolishi;
- gugurt o'ynash;
- yopiq joyda, uying ichida paqildoq va mushaklar otish;
- nosoz elektr asboblarini ishlatish;
- gaz plitadan noto'g'ri foydalanish.



1. Yong'inning yana qanday sabablari bo'lishi mumkin?
2. Sinfdozlaringiz bilan muhokama qiling:
 - Yong'in chiqmasligi uchun nima qilish kerak?
 - Yong'in chiqsa birinchi navbatda nima qilish kerak?
3. Yong'in xavfsizligi bo'yicha eslatma tuzing.